

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALARVAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI REKTORI



JAHON ETNOLOGIYASI
FAN DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 Gumanitar va san'at sohasi


Ta'lism sohasi: 220 000 Gumanitar fanlar

Ta'lism yo'nalishi: 60220400 – Arxeologiya


Urganch 2024

Mazkur o`quv dastur Urganch davlat universiteti kengashining 2024-yil
“29” 08 dagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.


O`quv ishlari bo`yicha prorektor


S.U.Xodjaniyazov

O`quv-uslubiy boshqarma
boshlig'i:


G.R. Matlatipov

Mazkur o`quv dastur Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti Kengashining 2024-yil “ ” dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (-sonli bayonnomma).


Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti dekani: 
i.f.d.prof. I.S.Abdullayev

Mazkur o`quv dastur “Tarix” kafedrasining 2024-yil

“ ” dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (-sonli bayonnomma).

Tarix

kafedrasi mudiri:


I.O.Abdullayev

Fan/modul kodi JAEB 307	O'quv yili 2024-2025	Semestr 6	ECTC Kreditlar- 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
Arxeologiya va etnologiya	90	60	150

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – Talabalarga qadimgi va o'rta asrlar davri umumiy xususiyatlari, arxeologik yodgorliklari va ularning o'rganilish muammolari, shuningdek, Dunyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati, turar joylari, an'anaviy turmush tarzi va diniy e'tiqodlariga doir bilimlarni Vatanimizning qadimgi davri tarixi va madaniyatini yoritishda arxeologik yodgorliklarining o'mi hamda ahamiyatini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi - Ilk urbanizatsiyaning shakllanishi, qadimgi davr lokal madaniyatlarini va ularning xususiyatini, qadimgi va o'rta asrlar davri urbanizatsiya taraqqiyoti, xo'jalik, ishlab chiqarish, dunyo xalqlarining antropologik va lingvistik klassifikatsiyasi, etnogenezi va etnik tarixi masalalari, xo'jalik-madaniy tiplar, etno-madaniy jarayonlar yuzasidan ega bo'lish. moddiy va ma'naviy madaniyat xususiyatlarini o'rganadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: Arxeologiya faniga kirish

Arxeologiya fan sifatida. Arxeologiya fanning predmeti, maqsadi va vazifalari Arxeologiyaning tarix fani sohasida tutgan o'mi. Arxeologik manbalar. Maddiy manbalar. Yozma manbalarning qadimgi va o'rta asrlar tarixini o'rganishdagi o'mi. Manbalarning madaniy-tarixiy jarayonlarni

o'rganishdagi ahamiyati. Arxeologiya fanining yordamchi tarmoqlari. Arxeologik tadqiqot usullari. Madaniy qatlam. O'zbekiston Respublikasining "Arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish" to'g'risidagi qonunining ahamiyati. Arxeologiyada davrlashtirish usullari. Nisbiy va cheksiz davrlashtirish. Arxeologiyaning fan sifatida shakllanish va rivojlanish. O'rta Osiyoda arxeologik tadqiqot ishlari tarixi.

2-mavzu:Tosh asri arxeologiyasi

Paleolit davri va uning bosqichlari. Paleolit davri tabiiy iqlim sharoitlari. Olduvay bosqichi. Sharqiy Afrikaning olduvay bosqichi yodgorliklari. Ashel davri. Yevroсиyo hududiga ibtidoiy odamlarning tarqalishi. Asosiy arxeologik yodgorliklar. O'rta paleolit davri xususiyatlari. O'rta paleolit davri yodgorliklari. So'nggi paleolit. Insoniyatning Amerika mintaqasiga tarqalishi. G'oyaviy qarashlar. Sun'iy turar joylarning paydo bo'lishi.

Mezolit davri tavsifi. Tabiiy iqlim o'zgarishlari va ekologiya. Yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirishning boshlanishi. Ixtisoslashgan o'zlashtiruvchi xo'jalik shakllari. Moddiy madaniyat. Mikrolitlar. Old Osiyo mezolit davrida. O'rta Osiyoning mezolit davri madaniyatlari. Xo'jalik va moddiy madaniyat. Tasviriy san'at.

Neolit davri tavsifi. Neolit inqilobi. Yevrosiyoning janubiy viloyatlarida ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllarining vujudga kelishi. Yaqin Sharqda ilk dehqonchilikning paydo bo'lishi. O'rta Osiyoda ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining paydo bo'lishi Jebel va Joytun madaniyatlari. Ilk dehqonchilik manzilgohlari va qurilish. O'rta Osiyoning neolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalik shaklidagi madaniyatlari. Moddiy madaniyat va xo'jalik. Neolit davri ijtimoiy munosabatlari.

3-mavzu:Paleometall davri arxeologiyasi

Eneolit davri. Metallurgiya ishlab chiqarishi jamiyat taraqqiyotida tub burilishning muhim omil sifatida. Sug'orma dehqonchilik va uning ilk sivilizatsiya shakllanishidagi ahamiyati. Ixtisoslashgan ishlab chiqarishning shakllanishi. O'rta Osiyoning eneolit davri madaniyatlari (Anov-Nomozgoh, Sarazm). Manzilgohlar, qurilish va me'morchilik. Hunarmandchilik taraqqiyoti (kulolchilik va metall). Tasviriy san'at. Ijtimoiy munosabatlari. Diniy qarashlar.

Bronza davri tavsifi. Yevrosiyoning bronza davri madaniy-tarixiy jarayonlari. Yevroсиyo hududida madaniy taraqqiyotning notekisligi.

Yevrosiyoning bronza davri metallurgiya ishlab chiqarish markazlari va ularning sivilizatsiya o'choqlari taraqqiyotiga ta'siri. Old Osiyoning bronza davri madaniy-tarixiy jarayonlari. O'rta Osiyoning bronza davri madaniy taraqqiyoti. Bronza davri ilk shahar (Oltindepa, Gonur, Jarqo'ton, Sarazm Dashli) markazlari. Ixtisoslashgan hunarmandchilik. Moddiy madaniyat. O'rta Osiyoning dasht hududlari bronza davri madaniyatlar. Hindiston bronza davri Xarappa madaniyati. Drevneyamniy va Afanasev madaniyatlar. Xo'jalik xususiyatlari. Moddiy madaniyati. Ijtimoiy va g'oyaviy qarashlari. Bronza davri Srub va Andronovo madaniyatlar. Bronza davrida Uralbo'yi hududlarida sivilizatsiyaning shakllanishi. Arkaim manzilgohi va Sintashta mozori. Xo'jaliki va moddiy madaniyat.

4-mavzu:Qadimgi davr arxeologiyasi

Temir davri xususiyatlari. Ilk temir davri madaniy-tarixiy jarayonlari. O'rta Osiyoning ilk temir davri (Yaz I-III) arxeologiya majmuasi. O'rta Osiyoning ilk temir davri tarixiy-madaniy viloyatlari. Ilk temir davri manzilgohlari. Ko'hna shaharlar. Ilk temir davri xo'jaligi va moddiy madaniyati. O'rta Osiyo chorvador qabilalari madaniyati va xo'jalik xususiyatlari.

Antik davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari. O'rta Osiyoning antik madaniy-tarixiy viloyatlar va ularning asosiy arxeologiya yodgorliklari. Antik davri yirik shahar markazlari. Antik davrida qurilish va me'morchilik. Xo'jalik. Ixtisoslashgan ishlab chiqarish (kulolchilik, metallurgiya ishlab chiqarishi, to'qimachilik, zargarlik). Tasviriy san'at (haykaltaroshlik, haykalchalar va rang-tasvir). Torevtika. Antik davri madaniyatini o'rganishning ahamiyati. O'rta Osiyoning antik davri chorvador qabilalari madaniyati. Orolbo'yi hududida Chirikrabot va Babushmulla madaniyatlar. Xo'jalik va moddiy madaniyat.

5-mavzu:O'rta asrlar davr arxeologiyasi

Ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari. Yer egaligi munosabatlarining qaror topishi. O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar davrida. O'rta Osiyoda siyosiy tarqoqlik. Kichik davlatlarning vujudga kelishi. Tarixiy-madaniy viloyatlar umumiy tavsifi. Asosiy arxeologiya yodgorliklari. Yirik shaharlar, dehqonchilik qishloqlari va boshqa aholi manzilgohlari. Qurilish va me'morchilik. Hunarmandchilik turlari (kulolchilik, metallarga ishlov berish, to'qimachilik, zargarlik). Haykaltaroshlik, haykalchalar va rang-tasvir san'ati. O'rta Osiyoning Arab xalifaligi tarkibiga kiritilishi. Islom dini mafkurasiga xos

madaniyatning shakllanib borishi. O'rta Osiyo rivojlangan va so'nggi o'rta asrlar davrida. Rivojlangan va so'nggi o'rta asrlar me'morchiligi va moddiy madaniyati xususiyatlari. Qadimgi va o'rta asrlar davri tarixini o'rganishda arxeologiya fanining ahamiyati.

6-mavzu:Etnologiyaga kirish va tarixi.

Etnologiya fani predmeti. Fandagi maxsus atamalar. Etnoslarning tuzilishi. Moddiy va ma'naviy madaniyat. Etnoslarning tarixiy turlari. Etnogenez va etnik tarix muammolari. Etnik jarayonlar va uning turlari.

Etnologyaning mustaqil fan sifatida XIX asr o'rtalarida shakllanishi. Uning vujudga kelishi jamiyatdagi ijtimoiy-tarixiy vaziyat ehtiyojlariga asoslanishi haqida. Etnologyaning evolyutsion yo'nalishi, L.G.Morgan, E.Taylor., N.N. Mikluso Maklay. Diffuzionizm maktabi: Grebner va boshqalar. Funksional yo'nalish.

R.Malinovskiy, A.R.Radklif-Braun va hokazolar. Etnologiyaga oid manbalar va fanning tadqiqot uslublari. Manbalarning turlari. Etnologik tadqiqotlar. An'anaviy dala ekspeditsiyalari. Savol-javob varaqalari orqali etnosotsiologik tadqiqotlar o'tkazish usullari.

7-mavzu:Dunyo xalqlari klassifikatsiyasi

Geografik klassifikatsiya. Tarixiy-etnologik viloyatlar. Dunyo xalqlarining antropologik tarkibi. «Irqlar», «irqiy tiplar». Yirik irqlar va ularning xususiyatlari. Kichik irqlar.

Til klassifikatsiyasi. Morfologik va gnesologik. Til oilalarining genetik aloqalari. Etnos va til munosabatlari.Mustaqil tillar haqida.

Din etnos madaniyatining muhim omili sifatida. Dunyo dinlari: islam, xristianlik, buddizm. Davlat dinlari. Urug'-qabilachilikka oid diniy tasavvurlar. Xo'jalik madaniy tiplar. Ho'jalik-madaniy tiplarning (HMT) asosiy belgilari. O'zlashtirish va ishlab chiqarish xo'jalik-madaniy tiplari.

8-mavzu:Dunyo xalqlarining etnologik tavsifi. Avstraliya va Okeaniya xalqlari

Avstraliya va Okeaniya aholisining etnogenezi va etnik tarixi asosiy bosqichlari. Avstraliya va Tayemaniyaliklarning kelib chiqishi. Polineziyaliklarning shakllanishiga oid g‘oyalari. V.Gumbold, Te Rangi Xiroalar g‘oyasi. Tur Xayerdalning polineziyaliklarni Amerika aholisi bilan aloqador ekanligi haqidagi g‘oyasi. Yevropaliklarning Avstraliya va Okeaniyaga kirishi. Yangi Gvineya papuaslari. Lingvistik va antropologik xususiyatlari. Melaneziya xalqlari. Xo‘jaligi, moddiy va madaniyatlaridagi o‘ziga xosliklar.

Polineziya xalqlari. Irqiy xususiyatlari, tillari. Aholining an'anaviy xo‘jaliklari. Moddiy madaniyatlar. Diniy tasavvurlar. Mikroneziya xalqlari etnologiyasi. Ijtimoiy tuzumlari. An'anaviy dinlari.

9-mavzu:Osiyo xalqlari aholisi

Osiyo qit’asi xalqlariga oid umumiylar. G‘arbiy (Old), Janubiy va Janubiy – Sharqiy, Markaziy va Sharqiy Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi. Zamonaviy aholisining etnik tarkibi. Lingvistik va antropologik klassifikatsiyasidagi xususiyatlar. Old Osiyo dehqonchilik va chorvachilik vatani sifatida. Xo‘jalik taraqqiyoti. Asosiy xo‘jalik madaniy tiplari. Aholining uy-joylari, kiyim-kechaklari, taomlari.

Osiyo xalqlarining ma’naviy madaniyatlar. Xalq og‘zaki ijodi. Aholining oilaviy turmushi va ijtimoiy, diniy munosabatlari.

10-mavzu:O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari

O‘rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi. Irqiy hamda tillardagi umumiylar. O‘ziga xosliklar. Aholining an'anaviy xo‘jaliklari. Xo‘jalik madaniy tiplar va etnik chegaralar nomutonosibligi. Dehqonchilikning vujudga kelishi, taraqqiyoti. Moddiy madaniyati. Uy-joylarning aholi xo‘jaligi bilan bog‘liqligi. An'anaviy kiyimlari. Hunarmandchilik. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlarining taomlaridagi xususiyatlari. Ijtimoiy tashkilotlari. Mahallachilik an‘analari. Xalq og‘zaki ijodi. «Alpomish», «Manas», «Ker-Ogli». Islom va uning aholi ma’naviy madaniyatiga ta’siri.

11-mavzu:Afrika xalqlari

Afrikaning geografik holati. Qit’aning antropogenez xudud ekanligi haqida. Irqiy klassifikatsiya. Katta irqlar. Kichik irqiy tiplar. Bushmen . Pigmey, Koysan, Xabashlar, Malgashlar.

Lingvistik klassifiksiya. Asosiy til oilalari. Afrika aholisining zamonaviy holati. Al Farg'oniy, Muhammad Xorazmiylar asarlarida Afrika xalqlariga oid ma'lumotlar. Etnik tarixi. Paleolitga oid topilmalar. Neolit. Ishlab chiqarish xo'jaligining shakllanishi va keyingi taraqqiyoti. Dastlabki davlatlar, Gana, Mali, Songai, Aksum va boshqalar.

Afrikaning ovchi va terimchi qabilalari. Gottentot, bushmenlar, pigmeylar. Qit'aning chorvachilik aholisi. Nomadizm. Dehqonchilik. Motiga va omoch dehqonchiligi. Afrikaliklarning uy-joylari, ularga xo'jalik faoliyatining ta'siri. Idishlar, taomlar. Aholining an'anaviy kiyimlari.

Ijtimoiy hayot. Farzand tug'ilishi, ism qo'yish bilan bog'liq udumlar. To'y va to'y marosimlari. Xalq og'zaki ijodi. Tatiurovka. Diniy tasavvurlar. Fetishizm, Animizm, Totemizm. Dunyo dinlarining tarqalishi. Xristianlik, Islom dinlari. Jaynizm.

12-mavzu:Amerika xalqlari

Etnik tarixi. Irqiy xususiyatlari. Shimoliy Amerika xalqlari. Yevropaliklar istilosи, tub aholisining lingvistik klassifikatsiyasi. Amerika aholisining xo'jalik madaniy tiplari. Arktika ovchilari va baliqchilari. Tlinkitlar, irokez va algonkinlar xo'jaligi. Hindularning moddiy madaniyatları. Din va diniy tasavvurlar. Amerikaning zamonaviy aholisi. Markaziy va Janubiy Amerika xalqlari. Tillari. Xo'jalik -madaniy tiplar. Dehqonchilik, ovchilik. Ilm-fan. Dinlari. Qishloq jamoalari-aylyular.

13-mavzu:Yevropa xalqlari

Etimologik ma'nosi. Yevropa xalqlarining etnik tarixi va shakllanishi. Til klassifikatsiyasi. Hind-Yevropa, Oltoy, Ural til oilalari. Antropologik tarkibi. Kichik irqlar.

Yevropa aholisining xo'jaligi va moddiy madaniyati. Uy-joylari dagi o'ziga xoslik. An'anaviy kiyimlari. Ijtimoiy turmushi va ma'naviy madaniyatları. Xalq og'zaki ijodi. Dostonlar. Ertaklar.

III. Seminar mashg'ulotlarini bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Arxeologiya fanini o'rganishning ahamiyati.

2. Tosh asri xo‘jaligi va moddiy madaniyati.
3. Paleometall tarixiy-madaniy jarayonlari.
4. Bronza davri madaniy-tarixiy jarayonlari.
5. Qadimgi davr ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti.
6. O‘rta Osiyoning o‘rta asrlar xo‘jaligi va moddiy madaniyati.
7. Etnologiyaga oid maxsus atamalar va fanning tadqiqot uslublari.
8. Klassifikatsiyalar va ularning turlari.
9. Osiyo xalqlari etnologiyasi.
10. Avstraliya va Okeaniya xalqlari.
11. Melaneziya va Yangi Gvineya xalqlari.
12. G‘arbiy Osiyo xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyati
13. Janubiy Osiyo xalqlari.
14. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari.
15. Afrika xalqlari.
16. Shimoliy Afrika xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyati.
17. G‘arbiy Afrika xalqlarining moddiy va ma’naviy madaniyati.
18. Markaziy va Janubiy Afrika xalqlari.
19. Amerika xalqlari.

Seminar mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Paleolit davri arxeologik xo‘jaligi va moddiy madaniyati

2. Mezolit-neolit davri lokal madaniyatları
3. Paleometall davri tarixiy-madaniy jarayonları
4. O'rta Osiyoning qadimgi davri tarixiy-madaniy jarayonları
5. O'rta Osiyoning o'rta asrlar xo'jaligi va moddiy madaniyati
6. Etnologiya fani tarixi.
7. Old Osiyo xalqlari xo'jaligi va madaniyati.
8. Markaziy Afrika xalqlari ma'naviy madaniyati.
9. Shimoliy Amerika xalqlari moddiy madaniyati.
10. Kavkaz xalqlari xo'jaligi va madaniyati.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Arxeologiya va etnologiya fanining maqsad va vazifalari, moddiy va ma'naviy madaniyat, xo'jalik xususiyatlar, etno-madaniy jarayonlar, g'oyaviy qarashlar masalalari va ularning taraqqiyot bosqichlari, ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanishni bilishi kerak;
- Talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish. Muzey ashyolari va internet ma'lumotlarni, arxeologik va etnologik manbalarni mustaqil tadqiq qilish, o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;
- Muzey eksponatlari, arxeologik va etnologik manbalar tavsiflari, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish malakalariga ega bo'lish kerak.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishslash;

- taqdimotlarni qilish;

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.

Asosiy adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2011.
2. Kabirov J., Sagdullayev A. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. Toshkent. «O‘qituvchi» 1990.
3. Ibragimov R.Z Arxeologiya (o‘quv qo‘llanma) universitet. 2019
4. Salimov T.U. Jaxon etnologiyasi asoslari (o‘quv qo‘llanma) VNESHINVESTPROM. 2019
5. Jabborov I. M. «Jahon xalqlari etnologiyasi asoslari» T. O‘qituvchi 2008.
6. Jabborov I. M.-«O‘zbek xalqi etnografiyası» T.«O‘qituvchi» 1994.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

7. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.1. –Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
8. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O‘zbekiston. 2017.
10. Avdusin D.A. Osnovi arxeologii M., «Vissaya shkola» 1989
11. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavxalar. T., 1997.
12. Arxeologiya Zarubejnoy Azii. M., «Vissaya shkola» 1986
13. Arxeologiya Sredney Azii. Pod. red. S.B. Lunina. T., 1986.
14. Brey U., Tramp D. Arxeologicheskiy slovar M., «Progress» 1990

15. Drevneyshiye gosudarstva Kavkaza i Sredney Azii. M. «Vissaya shkola» 1985
16. Lamberg-Karlovski K, Sablov Dj. Drevniye sivilizatsii. Blijniy Vostok i Mezoamerika. M., «Nauka» 1992.
17. Lunina S.B. Arxeologiya Sredney Azii. Uchebnoye posobiye. Tashkent. 1986.
18. Martinov A.I. Arxeologiya. M., «Vissaya shkola» 2006.
19. Masson V.M. Perviy sivilizatsiya M., «Vissaya shkola» 1985.
20. Seton Lloyd. Arxeologiya Mesopotamii M., «Nauka» 1984.
21. Jabborov I. M. «Jahon xalqlari etnografiyası» T. O'qituvchi 1987.
22. Etnologiya. Uchebnik. Pod.red.G.Ye.Markova i V.V.Pimenova M.1994.
23. Etnografiya Uchebnik. Pod.red. Yu.V. Bromleya i G.Ye.Markova M.1982.
24. Levi-Stross K. Strukturnaya antropologiya. M.1983.
25. Cheboksarov N.N. Cheboksarova N.A. Narodi rassi, kulturi. M.1984.
26. Morgan L.G. Liga xodenasauni ili irokezov M.1983.
27. Averkiyeva Yu.P. Indeysi Severnoy Ameriki. M.1974.
28. Frezer D. Zolotaya vety M. 1989.
29. Averkiyeva Yu.P. Indeysi Severnoy Ameriki. M.1974
30. Tokarev S.A. Osnovi etnografii. M. 1986.
31. Narodi Afriki. Pod.red.E.G. Lvovoy M. 1986.
32. Narodi Sredney Azii i Kazaxstana. Pod.red. S.P. Tolstova. M.1962-1963.
33. Narodi Mira. Seriya. M. 1954- 1966.

Axborot manbaalari:

34. www.history.ru
35. www.natura.com

36. www.archaeology.ru

Fan dasturi Urganch Davlat Universiteti ilmiy Kengashning 2024-yil avgustdagi sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan/modul uchun ma'sular:

Jumaniyozova M.T -- UrDU Tarix fakul'teti Tarix kafedrasи dotsenti.

Karimov Ya -- UrDU Tarix fakul'teti Tarix kafedrasи o'qituvchisi



Taqrizchilar:

Sobirov Q. - UrDU Tarix fakul'teti Tarix kafedrasи dotsenti

Abdullaev O.I. - UrDU Tarix fakul'teti Tarix kafedrasи dotsenti

